


Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2021- yil yanvar-mart)


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2323,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi 110,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 50,0 % ni tashkil etdi.



B–Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**–Ishlab chiqaradigan sanoat **D**–Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash, **E**–Suv bilan taʼminlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish.

Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI* % da




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bugʻ bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 23,6 % ga, ishlab chiqaradigan(qayta ishlash) sanoatning 11,8 % ga o'sishi kuzatildi.


Shuningdek, togʻ-kon sanoatida 14,7 % ga hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish sanoatida 41,4 % gapasayishi kuzatildi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, % da

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,8 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,2 % ini tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoat




2021-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1163,0 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 50,0 % ini tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining hajmi 29,2 mlrd. so'm (jamiga nisbata ulushi 2,5%), o'rta-yuqori texnologiyali 31,5 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 2,7 %), o'rta-quyi texnologiyali 179,9 mlrd. so'm (jamiga nisbatan ulushi 15,5 %), quyi texnologiyali 922,4 mlrd.so'm (jamiga nisbatan ulushi 79,3 %) ni tashkil etdi.


Yuqori texnologiyali




O'rta-yuqori texnologiyali



O'rta-quyi texnologiyali



quyi texnologiyali



**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi
mahsulotlarning o'sish sur'ati**

2021- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 211,3 ming l 100% spirti (2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 8,1 % ga kamaygan), 143,4 tonna bint (65,2 %) kamaygan bo'lsa, 14,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (1,5 %) ishlab chiqarilib yuqori sur'atlari kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar- mart	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	14,2	14,4	0,2
Aroq, ming l. 100% spirt	229,9	211,3	-18,6
Sellyuloza, ming tonna 90%	463,4	495,4	32
Paxta tolasi, ming tonna	3,2	7,9	4,7
Paxta chigiti, ming tonna	5,6	12,6	7
Paxta tiviti (lint), ming tonna	0,2	0,8	0,6
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, ming tonna	9,9	5,3	-4,6
Etilen polimer qoplar, ming tonna	3,6	2,9	-0,7
Issqlik elektr markazlari (IEM) ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln.kVt/s	4375,1	4693,1	318
Bug' va issiq suv (issqlik energiyasi), ming Gkal	40,3	45,6	5,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish (yirik korxonalar bo'yicha)



Yumshoq bug'doy
va spelta uni

14,4
ming tonna



Aroq

211,4
ming l. 100% spirt




Sellyuloza

495,4
ming tonna 90%



Paxta chigiti

12,6
ming tonna



Paxta tiviti (lint)

0,8
ming tonna



Paxta tolasi

7,9
ming tonna



Etilen polimerli qoplar

2,9
ming tonna



Issiqlik elektr
markazlari (IEM)
ishlab chiqargan
elektr energiyasi

4693,1
mln.kVt/s



Bug‘ va issiq suv
(issiqlik energiyasi)

45,6
ming Gkal




Yirik shoxli
qoramollar uchun
tayyor ozuqa

5,3
ming tonna

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 2021- yilning yanvar-mart oylarida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1142,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (49,1 % ini) tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 23,6 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt/s	4375,1	4693,1	318,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	40,3	45,6	5,3

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



2021-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 41,4 % ga pasayishi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 710,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga o'sishi kuzatildi, jami sanoatdagi ulushi esa 30,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 4,1 % ni (2020-yil yanvar-mart oyida 5,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumaniga to'g'ri kelib 31,1 % ni, shuningdek, Guliston shahri 20,2 % ni hamda Sardoba tumani 8,9 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishning o'sish sur'atida viloyat (117,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Mirzaobod tumanida (148,3 %), Sardoba tumanida (143,0 %) va Sirdaryo tumanida (132,3 %), Sayxunobod tumanida (116,1 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati
(2021-yilning yanvar-mart oylarida)**

	Mrld. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	710,8	100,0	117,1
Guliston sh.	143,3	20,2	101,5
Shirin sh.	6,4	0,9	99,4
Yangiyer sh.	46,6	6,6	104,4
<i>tumanlar:</i>			
Boyovut.	48,1	6,8	102,6
Guliston.	15,6	2,2	100,7
Mirzaobod.	57,0	8,0	148,3
Oqoltin.	19,6	2,8	102,1
Sardoba.	63,4	8,9	143,0
Sayxunobod.	46,3	6,5	116,1
Sirdaryo.	221,3	31,1	132,3
Xovos.	43,2	6,1	100,4

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 285,2 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.




Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 12,3 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sirdaryo tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 56,3 %), Guliston shahri (30,1 %), Sayxunobod tumani (29,8 %) hamda Sardoba tumanlarida(18,3 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida sanoat mahsulotlari
ishlab chiqarish hajmi va indeksi**

	2021-yil yanvar-mart <i>mlrd. so'm</i>	Fizik hajm indeksi, <i>% da</i>
Sirdaryo viloyati	2323,9	105,3
Guliston sh.	217,5	106,5
Shirin sh.	1066,5	113,9
Yangiyer sh.	121,3	75,2
tumanlar:		
Boyovut.	106,4	125,2
Guliston.	70,9	110,6
Mirzaobod.	93,6	92,5
Oqoltin.	149,0	113,8
Sardoba.	79,2	123,3
Sayxunobod.	101,4	87,8
Sirdaryo.	265,3	94
Xovos.	52,9	100,3

Viloyatda ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, % da




Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulushi Shirin shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 45,9 %), Sirdaryo tumani (11,4 %), Guliston shahri (9,4 %), Yangiyer shahri (5,2 %), hamda Mirzaobod tumani (4,0 %), Boyovut tumani (4,6 %), va Sayxunobod (4,4 %) tumanlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Sardoba tumani (3,4 %) Guliston tumani (3,0 %) hamda Xovos tumaniga (2,3 %) to'g'ri kelmoqda.

**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va
iste'mol mollari ishlab chiqarish**
(2021-yil yanvar-mart oylari, ming so'mda)

	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish	Iste'mol mollari
Sirdaryo viloyati	2694,5	824,1
Guliston sh.	2375,9	1566,6
Shirin sh.	56395,7	336,4
Yangiyer sh.	2736,4	1051,7
tumanlar:		
Boyovut.	806,8	364,7
Guliston.	952,9	210,1
Mirzaobod.	1241,9	756,8
Oqoltin.	2811,4	370,7
Sardoba.	1180,8	945,0
Sayxunobod.	1290,7	588,6
Sirdaryo.	2036,9	1698,2
Xovos.	544,1	444,0

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'mol mollarining o'sishi (2020-yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da)




**Viloyatdagi hududiy sanoat korxonalari tomonidan ishlab
chiqarilgan mahsulotlar hajmi va ulushi**
(2021-yil yanvar-mart oylarida)

	Mahsulot hajmi (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatanulushi, % da
Sirdaryo viloyati	1473,0	63,4
Guliston sh.	103,3	47,5
Shirin sh.	1061,5	99,5
Yangiyer sh.	59,3	48,9
tumanlar:		
Boyovut.	8,0	7,6
Guliston.	0,01	0,01
Mirzaobod.	18,8	20,1
Oqoltin.	92,5	62,1
Sardoba.	0,01	0,02
Sayxunobod.	15,8	15,6
Sirdaryo.	95,6	36,1
Xovos.	18,2	34,4

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 763,3 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 32,9 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Sardoba tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi (100,0%), Guliston tumani (100,0 %), Boyovut tumani tumani (90,3 %), Sayxunobod tumani (81,4 %), Xovos tumani (79,0 %) Guliston shahri (54,4 %) hamda Sirdaryo (47,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni koʻrsatdiki, Yangiyer shahri (41,2 %), Mirzaobod tumani (36,5 %), Oqoltin tumani (39,6 %), hamda Shirin shahrida (0,6 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatda faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 2123 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 553 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 26,0 %) Guliston shahriga, 368 tasi (17,3 %) Sirdaryo tumaniga, 181 tasi (8,5 %) Yangiyer shahriga to'g'ri kelmoqda.



2021-yil yanvar-mart oylarida viloyatda 97 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 61,8 foizi Sirdaryo tumani, Oqoltin tumani, Guliston tumani va Guliston shahriga to'g'ri keladi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o`shish sur`atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o`z ta`sirini ko`rsatadi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 34 ta loyiha bo`yicha 55,7 mlrd.so`mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo`lib, jami sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 2,4 % ni tashkil etdi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 1328,1 mingAQSH dollari miqdorida eksport qilindi, jami viloyat eksport hajmining 2,5 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, 2020-yilning yanvar-martiga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmining o`shishi kuzatildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko`rsatkichlari

	2020-yil yanvar-mart	2021-yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	14	34
Korxonalar soni, birlik	16	17
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so`m	23,2	55,7
Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming AQSH dollar	428,3	1328,1
Yaratilgan yangi ish o`rinlari, birlik	127	481

Sanoat statistikasi bo`limi

Aloqa telefoni: (067) 236-86-23